

## ONA TILI DARSLARIDA O'QITUVCHI VA O'QUVCHI HAMKORLIGINING AHAMIYATI VA O'QITUVCHINING ROLI.

**Qahharova Munira Xasanovna**

*Samarqand viloyati Paxtachi tumani 1-umumiy  
o'rta ta'lim maktabining ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ta'limda samaradorlikka erishishda o'quvchi va o'qituvchining dars davomida fikran yaqinligi va hamkorlik muhitining yaratilishi muhim ekanligini ochib berishga harakat qilindi. Albatta bunda o'qituvchining kasbiy kompetentligi alohida mezonlarni belgilovchi tarozi pallasidir.*

**Kalit so'zlar:** *o'qituvchi, o'quvchi, "Yasha, deyman, o'g'lim!" she'ri, "Sabotul ojizin" asari, ta'lim maqsadi, hamkorlik ta'limi*

*Ta'lim-tarbiyadan maqsad buyumlar tabiatini o'rganish emas, balki kishining bilib olishi, axloqining kamol topishi bo'lmog'i lozim.*

**Suqrot**

Zamonaviy ta'limda o'quvchi o'rganishga intiluvchan, bilimga tashna, o'rganishga ehtiyojmand, ustoz esa uni bu qiziqish va izlanishlari sari san'atkorona olg'a yo'llovchi, o'quvchining izlab topish baxtidan quvonishi va g'ururi uchun ilhombaxsh tashabbuskor, homiy va yetakchi bo'lmog'i lozim. Shundagina zamonaviy ta'lim o'z oldiga qo'ygan bosh maqsadini uddalashi mumkin. Bunday o'qituvchi va o'quvchini shoir G'afur G'ulom mashhur "Yasha, deyman, o'g'lim!" she'rida ota va o'g'il timsolida shunday tasvirlagan edi:

–Dada, men osmonga uchar bo'lsam,  
Cheki yo'q ko'kni quchar bo'lsam,  
Yulduzdan yulduzga ko'char bo'lsam,  
Sen tubanda qolib ne deysan?  
– Yasha, deyman, o'g'lim!  
–Dada, men tankka otlansam-da,  
Istagan o'lkaga yetsam damda,  
Essizki hozircha yoshim kam-da,  
Ko'zing yo'lda tolib ne deysan?  
– Yasha, deyman, o'g'lim!  
–Dada, men so'rasam qalamingni,  
To'ldirsam she'rda ko'p-kamingni,  
Yuvolsam xijolat-u g'amingni,  
Yozganimni o'qib ne deysan?  
– Yasha, deyman, o'g'lim!<sup>36</sup>

<sup>36</sup> G'. G'ulom "Ilk To'plam" Toshkent:-1931

“Yasha, deyman, o‘g‘lim!” she‘rida fan va texnikani egallashni havas qilgan, qalbi qahramonlik ruhi bilan to‘lib-toshgan, cheksiz osmonga uchib, yulduzdan yulduzga o‘tishni orzu qilgan zamonamizning ilg‘or yosh qahramoni tuyg‘ularini o‘g‘li misolida tarannum etadi. O‘qituvchi bolalardagi qahramonlikka bo‘lgan zo‘r havasni sezgirlik bilan ilg‘ab olib, ularga mana shu asar bilan tanishishni, she‘rda o‘g‘ilning qo‘rqmaslik va irodalilik xislatlari jonli tafsilot va obrazlar orqali ochilganligini o‘quvchilar ongiga singdirishda mahoratini ko‘rsatishi lozim. Mazkur she‘rda ulug‘langan o‘quvchining intiluvchanlik, bunyodkorlik, faollik pafosiga So‘fi Olloyor tomonidan “ulug‘langan” mo‘min-qobillik, bo‘ysinuvchanlik, tobelik tushunchalari qarama- qarshi turadi. Bu ruhiyatni muallif “Sabotul ojizin” didaktik asarida quyidagicha aks ettiradi:

*G‘ulome oldi Abdullohi Ansor, Dedi: -Ey qul, otingni ayla izhor.*

*Dedi: -Ey xoja, sen qo‘ysang qayu ot, Mening otim o‘shaldur, ey neku zot.*

*Dedi: -Ey qul, sevarsan qaysi xo‘rok?*

*Dedi: -Sendin na teksa, behdur, ey pok.*

*Dedi: -Qaysi kiyim ko‘nglingda marg‘ub?*

*Dedi: -San qaysini bersang o‘shal xo‘b...<sup>37</sup>*

Bu ikki badiiy asarda tasvirlangan ikki turli shaxs ham ta‘lim beruvchi~ ta‘lim oluvchi munosabati mahsulidir. Shu o‘rinda haqli bir savol tug‘iladi: O‘quvchidan qanday shaxs yetishib chiqishi faqat ta‘lim beruvchi-ta‘lim oluvchi munosabatiga bog‘liqmi? Bu savolga “Ha” deb javob berib bo‘lmaydi. Ta‘lim beruvchi-ta‘lim oluvchi munosabatlari mohiyatan o‘ta murakkab jarayon, mexanizm bo‘lgan ta‘lim tizimining–davr didaktikasining bir murvati, bir bo‘lagi, xolos.

Bizga ma‘lumki, ta‘lim maqsadi bilimdon, barkamol shaxsni yetishtirishni nazarda tutsa, bunda retroskopik usullar, deduktiv ta‘lim yetakchilik qilishi shubhasizdir, chunki ta‘lim maqsadi shuni taqozo qiladi. Ta‘lim ijodiy tafakkur sohibi, tadbirkor shaxsni tarbiyalashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan bo‘lsa, unda bunday maqsadni amalga oshirish uchun muammoli va tadqiqotchilik usullari, induktiv ta‘lim yetakchilik qilishi lozim. Ta‘lim usuli bilim, shu asosdagi ko‘nikma, malakani o‘quvchida qanday usul bilan hosil qilish o‘qituvchi-o‘quvchining o‘zaro subyekt-subyekt munosabatga kirishishini taqozo qiladi. Shuningdek, ta‘lim vositasi hisoblangan o‘quv darsligi ham shunga mos bo‘lmog‘i zarur, chunki bu ta‘lim maqsadi va mazmuni orasidagi mutanosiblikni ta‘minlashda asosiy o‘rinlardan birida turadi.

Bu ta‘lim usulining bosh omili - o‘quvchining darslikda berilgan o‘quv material bilan mutlaqo chegaralanmasligi, darslik topshiriqlari asosida axborot bankidan material topib uning ustida mustaqil izlanishidir. Shuning uchun bu usulda yozilgan maktab darsliklari odatda hajman kichik bo‘ladi; ular o‘quv materialini to‘liq bermaydi, uni topish, uning ustida ishlash mas‘uliyatini o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchining o‘ziga yuklaydi.

Ta‘lim faqatgina ijtimoiy tajribani yosh avlodga yetkazish vazifasini emas, balki jadallashtiruvchilik, ogohlantiruvchilik vazifasini ham bajarishi kerak. Bu o‘rinda pedagogik hamkorlikning ahamiyati beqiyosdir. O‘z faoliyatini mustaqil tarzda tashkil etish nazariyasi

<sup>37</sup> So‘fi Olloyor “Sabotul-ojizin” –T.;Mehnat. -1991.-81-bet

pedagogik hamkorlikning asosini tashkil qiladi. Pedagogik hamkorlikning uyg'unlashtiruvchilik vazifasi subyekt-subyekt munosabatlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Ona tili ta'limi jarayonida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun o'quvchilarda ongli faoliyat ko'rsatish ko'nikmasini tarkib toptirish, ularni mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish alohida ahamiyatga ega. Ona tili darslarida pedagogik hamkorlikni amalga oshirish jarayoni nafaqat o'quvchida, balki o'qituvchida ham yangiliklarni qabul qilishga moyillikning ortishi, axborotlardan faol, maqsadga yo'naltirilgan holda foydalanish imkonini rivojlantiradi; ham o'qituvchi, ham o'quvchini o'zining ichki quvvatlari va mayllarini faollashtirishga ko'maklashadi, ularni o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltiradi. Darvoqe, faylasuf R.Emerson to'g'ri ta'kidlaganidek, **“Muvaffaqiyatli tarbiyaning siri – o'quvchiga hurmatda.”**

Shuningdek, o'qituvchi go'yo bir bog'bon bo'lsa, o'quvchilarning har biri har xil gullardir. Har bir gul alohida parvarish talab qilganidek, har bir o'quvchi ham o'ziga alohida e'tibor talab qiladi. Lekin bir o'quvchini e'tibordan chetda qoldirdingmi, bas, u parvarishsiz qolgan gulga o'xshab qoladi, yo so'lib qoladi, yo o'zi xohlagan tomonga o'sib, go'zallik taratmaydi.

O'zaro hamkorlikka asoslangan ona tili ta'limi natijasi, tabiiyki, tezlikda ochiq-oydin namoyon bo'ladigan jarayon emas. Bunday ta'lim jarayoni o'quvchining shaxsiy, yashirin rivojlanish tizimiga ta'sir ko'rsatadigan pedagogik hodisa hisoblanadi. Pedagogik o'zaro hamkorlikdagi ta'lim voqelikni ochish usuli, kelajak sari borish yo'lini izlash imkoniyatidir.

Xullas, ta'lim maqsadi aniq belgilanib olingandan keyin ta'lim mazmunining usul-u vositalarini ularga muvofiqlashtirish, o'quvchilarning ham, o'qituvchilarning ham ta'limga tamoman yangicha munosabatda bo'lishlarini shakllantirish, ya'ni o'quvchiga ta'lim jarayonining subyekti sifatida qarash, umuman, ta'lim jarayoniga tizim sifatida yondashish ona tili ta'limining doimiy dolzarb masalasi bo'lib qolaveradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'rta ta'limning umumta'lim fanlari bo'yicha malaka talablari. Ona tili fani.- Toshkent, 2018.
2. Kompetensiyaga yo'naltirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi: Ona tili, adabiyot. o'zbek tili (5-9 sinflar). – Toshkent. 2016.
3. Ne'matova G. “Ijodiy tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi va o'quvchining mustaqil faoliyati( Ona tili o'qituvchilari uchun metodik tavsiyalar).-Toshkent:RTM, 2021
4. So'fi Olloyor “Sabotul-ojizin” -T.;Mehnat. -1991.
5. G'. G'ulom “Ilk to'plan” Toshkent:-1931